**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

KUZIYEV SHAXOBIDDIN SOBIROVICH

SOBOLEV FAZOSIDA HOSILALI OPTIMAL KVADRATUR FORMULALAR

01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

UDK: 519.644

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

KUZIYEV SHAXOBIDDIN SOBIROVICH

SOBOLEV FAZOSIDA HOSILALI OPTIMAL KVADRATUR FORMULALAR

01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/FM1014 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nuraliyev Farxod Abdug‘aniyevich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xudoyberganov Mirzoali Urazaliyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Uteuliev Nietbay Uteulievich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning «___»________ 2025 yil soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «____» ________________ kuni tarqatildi.
(2025 yil «____» ____________ dagi _______ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

R.D. Aloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida quyosh fizikasi, sintezlangan gologrammalarni modellashtirish, suyuqlik va gazlar mexanikasi masalalaridagi differensial va integral tenglamalarni yuqori aniqlikda sonli yechish hosilali optimal kvadratur formulalar qurishga olib kelinadi. Odatda bunday masalalarni yechishda oddiy interpolyatsion kvadratur formulalaridan foydalanish katta miqdordagi hisoblash ishlarini talab qiladi. Shu sababli, matematikada tipik masalalarning yechimlarini yetarlicha aniqlikda hisoblashga imkon beruvchi optimal sonli yechish algoritmlarini yaratish va shu maqsadda hozirgi zamon hisoblash vositalaridan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish, hamda ma’lum Gilbert va Banax fazolarida hosilali optimal kvadratur formulalar qurish va ularning xatoliklarini baholash hisoblash matematikasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda funksiyalarning tugun nuqtalardagi ikkinchi tartibli hosilasigacha bo‘lgan qiymatlaridan foydalanib, hosilali optimal kvadratur va kubatur formulalar qurish, ularning xatoliklarini baholash keng tadqiq etilmoqda. Hosilali optimal kvadratur formulalar tabiiy jarayonlarni matematik modellashtirishda hosil bo‘ladigan xususiy hosilali differensial tenglamalar va integral tenglamalarning sonli analitik yechimlarini topishda, funksiyaning tugun nuqtalardagi birinchi hamda ikkinchi tartibli hosilalari yordamida ifodalanuvchi mexanik yoki fizik jarayonlarga bog‘liq integrallarni taqribiy yechishda, gidroenergetika sohasidagi optimal yuzalarni hisoblashda keng qo‘llaniladi. Shu munosabat bilan differensiallanuvchi funksiyalarning Gilbert va Banax fazolarida hosilali optimal kvadratur formulalar qurish hamda keng doiradagi foydalanuvchilarga mo‘ljallangan qulay interfeysga ega dasturlar majmuasini yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan suyuqliklar mexanikasi va matematik fizika, geofizika masalalarini sonli-analitik yechish hamda integral tenglamalarni taqribiy yechishning samarali metodlarini yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, hisoblash matematikasining sonli integrallash nazariyasiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, Sobolev fazolarida funksiyalarning tugun nuqtalardagi ikkinchi tartibli hosilasigacha bo‘lgan qiymatlaridan foydalanib, hosilali optimal kvadratur formulalar qurish va ularning xatoliklarini baholash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha jahon standartlari darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish ko‘plab respublika ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlari fundamental tadqiqotlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son qarori.

hosilali kvadratur formulalar qurish va ularning xatoliklarini baholash usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘plab amaliy masalalarda xususan, jismning og‘irlik markazi, inersiya momentlarini, tasvir va signallarni tahlil qilish va filtrlash bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda hosilali optimal kvadratur formulalar muhim ahamiyatga ega. Funksiyaning tugun nuqtalardagi birinchi hamda ikkinchi tartibli hosilalari yordamida ifodalanuvchi mexanik yoki fizik jarayonlarga bog‘liq integrallarni hisoblashda hosilali optimal kvadratur formulalar yaxshi natija beradi. Shuning uchun hosilali optimal kvadratur formulalarni qurish va ularning turli fazolarda xatoliklarini baholash muhimdir. Hosilali optimal kvadratur formulalar qurish masalasi bu ma’lum funksiyalar sinfida, tugun nuqtalar fiksirlanganda xatolik funksionali normasini minimallashtirishdir. Bunday hosilali optimal kvadratur formulalar splaynlar, ϕ – funksiyalar va Sobolev metodlari yordamida quriladi.

I. Schoenberg splayn metodi bilan $L_2^{(m)}(0,n)$ fazoda klassik Eyler-Makloren formulasining optimalligini isbotlagan. S.A. Michelli $W_2^{(m)}$ fazoda $m-$ toq bo‘lganda Eyler-Makloren formulasi eng yaxshi formula ekanligini ko‘rsatgan. T. Catinas, G. Coman ϕ - funksiyalar metodi bilan optimal kvadratur formulalar qurgan. B. Bojanov, P. Petrov $2n-1$ darajali barcha algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan Gauss tipidagi kvadratur formula qurgan. V.I. Danchenko, L.A. Semin ishida Chebishev-Markov ko‘phadining nollaridan foydalangan holda murakkab ratsional funksiyalarning integrallarini hisoblash uchun hosilali kvadratur formulalar qurgan va ulardan ratsional funksiyalarning L_2 normalarini hisoblashda foydalangan. E.F. William, Y. Xu, Y. Zhao singulyar integrallarni taqribiy hisoblash uchun hosilali kvadratur formulalardan foydalangan hamda Riemann zeta funksiyasining hosilalarini hisoblash uchun samarali algoritm berilgan. M. Kanagawa, K.B. Sriperumbudur, K. Fukumizu Sobolev fazolarida Bayes kvadratur formulasining yaqinlashish tezligini o‘rgangan. M.B. Klaricic, J. Pecaric, R.P. Mihaela, A. Vukelic uch nuqtali Ermit tipidagi hosilali kvadratur formulalar yordamida ba’zi yangi Gruss tipidagi tengsizliklar ko‘rib chiqilgan va Eyler Simpson formulasi yordamida kvadratur formulaning xatoligini baholagan. A.I.Zadorin $C^3\left[a,b\right]$ fazoda funksiyaning hosilasidan foydalanib, uchinchi darajali ko‘phadgacha aniq bo‘lgan hosilali formula qurgan. Sh.Zhang, E.Novak Sobolevning $H_0^{(1)}\left[0,1\right]$ fazosida teng taqsimlangan tugun nuqtalarda ixtiyoriy vaznli integrallarni taqribiy hisoblash uchun optimal algoritm bergan va davriy funksiyalarning Furye koeffitsiyentlarini hisoblashda muhim natijalar olgan. M.Sh. Muhammad, S.Ch. Muhammad, W.Sh Abdul ishida funksiya hosilalaridan foydalanib, ba’zi yangi kvadratur formulalar taklif qilingan hamda ular vaqt va hisoblash jihatidan samarali ekanligi isbotlangan.

Hosilali optimal kvadratur formulalar qurish va ulardan amaliy masalalarni yechishdagi tadbig‘i bo‘yicha ilmiy yangiliklarni I. Area, K.D. Dimitrov, D. Eduardo, G.V. Paschoa, H. Ayman, S. Rania, H. Raed, W. Mohammad, Q. Ahmad, A. El-Ajou, O.A. Arqub, V. Al-Smadi, Q. Feng, G. Bai-Ni, P. Irina, P. Tam, F. Petr, W. Kailiang, Sh. Yeonjong X. Dongbin, T.K. Bratislava, N.P. Zilina, M.M. Spalevic, Y. Quintana, A. Urieles, M. Sanda, T. Szostok, X.M. Shadimetov, A.R. Hayotov, F.A. Nuraliev, D.M. Axmedov, A.K. Boltayev, S.S. Babayev va boshqa olimlar o‘z ilmiy ishlarida bayon etishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Hisoblash matematikasi laboratoriyasining “Gilbert fazolarida optimal kvadratur, interpolyatsion, ayirmali formulalar qurish va ularni integral tenglamalarni yechishga tatbiqlari” mavzusidagi kalendar reja doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sobolevning $L_2^{(m)}(0,1)$ differensiallanuvchi funksiyalar fazosida hosilali optimal kvadratur formulalar qurish, ularga mos xatolik funksionali normasini hisoblash hamda integral tenglamalarni sonli yechishda hosilali optimal kvadratur formulalarni qo‘llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

$L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan hosilali kvadratur formulalar xatolik funksionali normasining ko‘rinishini topish;

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida hosilali optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari uchun Vinner-Xopf tipidagi tenglamalar sistemasini olish;

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida $m=3$ va $m=4$ bo‘lgan hollarda hosilali optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlarini topish;

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida $m>4$ uchun hosilali optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlarining analitik ko‘rinishini topish;

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida $m=3$ va $m=4$ bo‘lgan hollarda hosilali optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasini hisoblash;

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida hosilali optimal kvadratur formula xatoligining yuqori chegarasini baholash

Tadqiqotning obyekti. Sobolev fazolari, hosilali optimal kvadratur formulalar, xatolik funksionallaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti. Riss elementi, algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan hosilali optimal kvadratur formulalar, chiziqli uzluksiz funksionallar, Sobolevning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida qurilgan hosilali optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasidan iborat.

Tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqot ishida hisoblash matematikasi, funksional analiz, ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, umumlashgan funksiyalar hamda diskret argumentli funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

differensiallanuvchi funksiyalarning $L_2^{(m)}(0,1)$ haqiqiy qiymatli Sobolev fazosida $m \geq 3$ uchun algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan hosilali optimal kvadratur formula xatolik funksionali normasining analitik ko‘rinishini topilgan;

optimal koeffitsiyentlarni topish uchun Vinner-Xopf tipidagi tenglamalar sistemasi Lagranjning aniqmas ko‘paytuvchilar usulidan foydalanib olingan;

differensiallanuvchi funksiyalarning $L_2^{(m)}(0,1)$ haqiqiy qiymatli Sobolev fazosida $m=3$ uchun hosilali optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari va xatolikning yuqori chegarasi topilgan;

differensiallanuvchi funksiyalarning $L_2^{(m)}(0,1)$ haqiqiy qiymatli Sobolev fazosida $m \geq 3$ uchun hosilali optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari diskret operatordan foydalanib topilgan;

differensiallanuvchi funksiyalarning $L_2^{(m)}(0,1)$ haqiqiy qiymatli Sobolev fazosida $m \geq 3$ uchun hosilali optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasi hisoblangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hosilali optimal kvadratur formula yordamida murakkab tabiiy tizimlarda hosil bo‘ladigan dinamik jarayonlarning matematik modellari qurilgan;

ko’ndalang to‘lqin tarqalish tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni sonli hisoblash sxemalari qurilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kvadratur formulalar nazariyasi, hisoblash matematikasi, ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, matematik - fizika tenglamalari, funksional analiz, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi metodlari qo‘llanganligi va matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati Sobolevning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida aniq integrallarni yetarli aniqlikda taqribiy hisoblash uchun hosilali optimal kvadratur formulalar qurilganligi va bu formulalar xatoligining yuqori chegarasi baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hosilali optimal kvadratur formulalar aniq integrallarni sonli taqribiy hisoblash usullari yordamida murakkab tabiiy tizimlarda hosil bo‘ladigan dinamik jarayonlarning matematik modellari qurishda, ko‘ndalang to‘lqin tarqalish tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalarini yechishda qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sobolevning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan hosilali optimal kvadratur formulalar qurish bo‘yicha olingan yangi ilmiy natijalar asosida:

differensiallanuvchi funksiyalarning $L_2^{(m)}(0,1)$ haqiqiy qiymatli Sobolev fazosida qurilgan hosilali optimal kvadratur formulalardan С-ПМ1 “Gidroturbonasos qurilmasi yordamida qishloq xo‘jaligi yerlarini elektr energiya sarfisiz sug‘orish tizimi” mavzusidagi davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi xalqaro qo‘shma ilmiy amaliy loyihada elektr energiyasi bilan ishlaydigan sug‘orish tizimlarini samarali boshqarish va suv resurslarini tejash jarayonlarini ifodalovchi matematik modellar yechimlarini baholashda foydalanilgan (Farg‘ona politexnika institutining 2024-yil 14-avgustdagi 01-2074-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, gidroenergetikada muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan murakkab shaklli gidroturbinalarning yuzalarini kichik tugunlarga bo‘lish orqali ularning yuzalarini hisoblash, murakkab shaklli gidroturbinalarni loyihalash va optimal yuzalarni tanlash imkonini bergan;

differensiallanuvchi funksiyalar fazosida qurilgan algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan hosilali optimal kvadratur formulalardan “Avtotransport vositalarini metal qismlarini korroziyadan himoyalovchi mahalliy qoplama yaratish” mavzusidagi davlat ilmiy-texnik amaliy loyihasida avtomobillarning metal qismlari chidamliligini o‘rganishda foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2024-yil 8-iyundagi 03-1200-1190-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu yangi hosilali optimal kvadratur formuladan avtomobillarning tag qismini korroziyadan himoyalovchi qoplamani mahalliy xom-ashyolardan tayyorlash texnologik jarayonida qo‘llaniladigan vollastonit gossipol polimer materiallarning xossalarini va obyektiv xususiyatlarini o‘rganishga imkon yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 5 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ikkita guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan,tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzu bo‘yicha dunyo miqyosidagi ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Sobolev fazosida hosilali optimal kvadratur formulalar qurish masalasi”** deb nomlangan birinchi bobi asosan kirish xarakteriga ega bo‘lib, unda dissertatsiyada qo‘llaniladigan asosiy tushuncha va ta’riflar keltirilgan. Shuningdek, ushbu ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar va olingan natijalar bayon qilingan.

Bu bobning birinchi paragrafida Sobolev fazolari, funksionallar fazosi, chiziqli uzluksiz funksionalning normasi, umumlashgan funksiya va uning hosilasi haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan, biz ish olib boradigan $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosi va undagi skalyar ko‘paytma va norma tushunchalari keltirilgan.

Biz quyidagi fazoni qaraymiz

$$L_2^{(m)}(0,1):=\{u:[0,1]\to\mathbb{R}\,|\,u^{(m-1)}\text{ abs. uzl. va } u^{(m)}\in L_2(0,1)\}$$

bu haqiqiy qiymatli funksiyalarning Sobolev fazosi bo‘lib, elementlari $m-1$ chi tartibli hosilasi va m chi tartibli umumlashgan hosilalari yig‘indisining absolyut qiymati kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalardir. Ushbu fazoda ikkita u va v funksiyalarning skalyar ko‘paytmasi quyidagicha aniqlangan

$$\langle u,v\rangle_{L_2^{(m)}(0,1)}=\int_0^1 u^{(m)}(x)\cdot v^{(m)}(x)dx, \tag{1}$$

(1)-skalyar ko‘paytma bilan birgalikda $L_2^{(m)}(0,1)$ fazo Gilbert fazosini tashkil etadi. (1)-skalyar ko‘paytmaga mos biror u funksiyaning normasi quyidagicha kiritiladi

$$\|u\|_{L_2^{(m)}}=\langle u,u\rangle_{L_2^{(m)}}^{1/2}. \tag{2}$$

Ushbu $L_2^{(m)}(0,1)$ fazoning har bir elementi bu – biri ikkinchisidan $(m-1)$ darajaligacha bo‘lgan ko‘phadlarning chiziqli kombinatsiyasi bilan farq qiluvchi funksiyalar sinfidir, ya’ni $L_2^{(m)}(0,1)$ fazo faktor fazodir.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida Sobolev fazosida aniqlangan funksiyalarning aniq integrallarini sonli hisoblash usullari va hosilali optimal kvadratur formulalar qurishda olingan ba’zi natijalar keltirilgan. Aniq integrallarni sonli hisoblash klassik, ehtimolli-statistik va funksional yondashuvlarga asoslangan. Klassik ma’noda kvadratur formulalar qurishda formulaning koeffitsiyentlari va tugun nuqtalari berilgan W funksiyalar to‘plamining barcha elementlarini aniq integrallaydi degan shart bilan quriladi. Ehtimolli-statistik yo‘nalishida qurilgan formulalar Monte-Karlo usuliga asoslanadi. Aniq integrallarni taqribiy hisoblashda funksional yondashuv funksional analiz nazariyasiga asoslangan bo‘lib, aniq integral va kvadratur yig‘indi B Banax fazosida aniqlangan chiziqli, uzluksiz funksional sifatida qaraladi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida ushbu dissertatsiya ishda muhim bo‘lgan ta’riflar, Bernulli sonlari hamda ularning xossalari keltirilgan.

1-ta’rif. β o‘zgaruvchining faqat butun qiymatlarida aniqlangan $u(h\beta)$ funksiya diskret argumentli funksiya deyiladi.

2-ta’rif. $u(h\beta)$ va $v(h\beta)$ diskret argumentli funksiyalarning skalyar ko‘paytmasi quyidagicha aniqlanadi

$$[u,v]=\sum_{\beta=-\infty}^{\infty}u(h\beta)\cdot v(h\beta)$$

agar tenglikning o‘ng tomonidagi cheksiz yig‘indi yaqinlashuvchi bo‘lsa.

3-ta’rif. Ikkita $u(h\beta)$ va $v(h\beta)$ diskret argumentli funksiyalarning $u(h\beta)*v(h\beta)$ o‘rama amali skalyar ko‘paytma orqali quyidagicha aniqlanadi

$$u(h\beta)*v(h\beta)=\left[u(h\beta),v(h\beta-h\gamma)\right]=\sum_{\gamma=-\infty}^{\infty}u(h\beta)\cdot v(h\beta-h\gamma).$$

Quyidagi tenglikda

$$\frac{z}{e^z-1}=\sum_{n=0}^{\infty}\frac{B_n}{n!}z^n,\quad |z|<2\pi,$$

B_n - Bernulli soni bo‘lib, ular

$$z=(e^z-1)\sum_{n=0}^{\infty}\frac{B_nz^n}{n!}=\left(z+\frac{z^2}{2!}+\frac{z^3}{3!}+\frac{z^4}{4!}+...\right)\left(B_0+\frac{B_1z}{1!}+\frac{B_2z^2}{2!}+\frac{B_3z^3}{3!}+\frac{B_4z^4}{4!}+...\right),$$

$$z=B_0z+\left(\frac{B_0}{2!}+\frac{B_1}{1!}\right)z^2+\left(\frac{B_0}{3!}+\frac{B_1}{2!}+\frac{B_2}{2!}\right)z^3+\left(\frac{B_0}{4!}+\frac{B_1}{3!}+\frac{B_2}{2!2!}+\frac{B_3}{3!}\right)z^4+...\ .$$

tenglikdan z ning mos darajalarini tenglash natijasida topiladi. B_1 elementidan boshqa qolgan barcha toq nomerdagi sonlari nolga teng, ya’ni

$$B_{2k+1}=0,\ k=1,2,\ldots.$$

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafida B - Banax fazosida optimal kvadratur formulalar qurish masalasi keltirib o‘tilgan.

Bizga [0,1] da aniqlangan uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalarning biror B Banax fazosi berilgan bo‘lsin.

Butun B sinfda

$$\int_0^1 u(x)dx\cong\sum_{\beta=0}^{N}d[\beta]u(h\beta) \tag{3}$$

kvadratur formulaning xatoligi deb

$$R[I]=\left|\int_0^1 u(x)dx-\sum_{\beta=0}^{N}d[\beta]u(h\beta)\right| \tag{4}$$

tenglikka aytiladi. Bu xatolikning aniq quyi chegarasi berilgan funksiyalar fazosida kvadratur formula xatoligining optimal bahosi deyiladi. Bu yerda $u\in H,\ d[\beta]$-

kvadratur formulaning koeffitsiyentlari, $h\beta$ - tugun nuqtalari. (3) kvadratur formulaga quyidagi chiziqli, uzluksiz xatolik funksionali mos keladi

$$\ell(x)=\varepsilon_{[0,1]}(x)-\sum_{\beta=0}^{N}d\left[\beta\right]\delta(x-h\beta). \tag{5}$$

Bu funksional B Banax fazosiga qo‘shma $B*$ fazoga tegishlidir. (3) kvadratur formulaning xatoligi funksionalning normasi ta’rifidan quyidagicha baholanadi

$$\left\|\ell|B*\right\|=\sup_{\|u|B\|=1}\left|\ell,u\right|. \tag{6}$$

Binobarin, berilgan fazoda (3) kvadratur formulaning xatoligini baholash, qo‘shma fazoda aniqlangan (5) funksionalning normasini topishga keltiriladi. Xatolik funksionali $d\left[\beta\right]$ koeffitsiyentlarga va $h\beta$ tugun nuqtalarga bog‘liq bo‘lib quyidagi munosabatni qanoatlantiradigan koeffitsiyentlar *optimal koeffitsiyentlar* deyiladi

$$\left\|\overset{\circ}{\ell}|B*\right\|:=\inf_{\overset{\circ}{d}[\beta]}\left\|\ell|B*\right\|. \tag{7}$$

Topilgan $\overset{\circ}{d}\left[\beta\right]$ koeffitsiyentlarga mos (3) kvadratur formula optimal kvadratur formula deyiladi. Shunday qilib biz, optimal kvadratur formula qurishimiz uchun quyidagi masalalarni ketma-ket yechishimiz kerak:

Masala A. (5) xatolik funksionali normasining umumiy ko‘rinishini aniqlash.

Masala B. (5) xatolik funksionali normasiga minimum qiymat beruvchi $\overset{\circ}{d}\left[\beta\right]$ koeffitsiyentlarni topish.

Dissertatsiyaning **“Xatolik funksionali normasiga minimum qiymat beruvchi optimal koeffitsiyentlar uchun analitik ifodalar”** deb nomlangan ikkinchi bobi $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida $m\geq 3$ bo‘lgan holda hosilali optimal kvadratur formulalarning koeffitsiyentlarini topishga bag‘ishlanadi.

Ushbu bobning birinchi paragrafida $L_2^{(m)}(0,1)$ fazoda aniq integrallarni sonli hisoblash uchun hosilali optimal kvadratur formulalar qurish algoritmi berilgan.

Biz quyidagi ko‘rinishdagi kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1\varphi(x)dx\cong\sum_{\beta=0}^{N}C_0\left[\beta\right]\varphi(h\beta)+\frac{h^2}{12}(\varphi'(0)-\varphi'(1))+\sum_{\beta=0}^{N}C_1\left[\beta\right]\varphi''(h\beta) \tag{8}$$

ushbu ayirmaga (8) kvadratur formulaning xatoligi deyiladi

$$\left(\ell_N,\varphi\right)=\int_0^1\varphi(x)dx-\sum_{\beta=0}^{N}C_0\left[\beta\right]\varphi(h\beta)-\frac{h^2}{12}(\varphi'(0)-\varphi'(1))-\sum_{\beta=0}^{N}C_1\left[\beta\right]\varphi''(h\beta)$$

bunga mos xatolik funksionali esa

$$\begin{aligned}\ell_N(x)=\varepsilon_{[0,1]}(x)-\sum_{\beta=0}^{N}C_0\left[\beta\right]\delta(x-h\beta)+\frac{h^2}{12}(\delta'(x)-\delta'(x-1))-\\-\sum_{\beta=0}^{N}C_1\left[\beta\right]\delta''(x-h\beta),\end{aligned} \tag{9}$$

ko‘rinishda bo‘ladi. Bu yerda $\varepsilon_{[0,1]}(x)$ - [0,1] kesmaning xarakteristik funksiyasi, $\delta(x)$ - Dirakning delta funksiyasi, $C_0[\beta]$ $(\beta=\overline{0,N})$ ma’lum koeffitsiyentlar va $C_1[\beta]$, $(\beta=\overline{0,N})$ lar (8) formulaning noma’lum koeffitsiyentlari, $h=\dfrac{1}{N}$, $N\in\mathbb{N}$.

(8) hosilali kvadratur formulaga mos $\ell_N(x)$ xatolik funksionali $L_2^{(m)*}(0,1)$ qo‘shma fazoda aniqlangan chiziqli, uzluksiz funksionaldir.

Funksional normasining ta’rifiga ko‘ra

$$\left\|\ell_N \mid L_2^{(m)*}\right\| = \sup_{\left\|\varphi|L_2^{(m)}\right\|\neq 0}\frac{|(\ell_N,\varphi)|}{\left\|\varphi \mid L_2^{(m)}\right\|}.$$

Supremum ta’rifidan foydalanib, Koshi-Shvarts tengsizligini olamiz

$$|(\ell_N,\varphi|\leq\|\varphi\mid L_2^{(m)}\|\cdot\|\ell_N\mid L_2^{(m)*}\|.$$

Bu tengsizlikdan ko‘rinib turibdiki (8) hosilali kvadratur formulaning xatoligi, yuqoridan $L_2^{(m)*}(0,1)$ qo‘shma fazodan olingan $\ell_N(x)$ xatolik funksionalining normasi va $L_2^{(m)}(0,1)$ fazodan olingan $\varphi(x)$ funksiyaning normasi ko‘paytmalari orqali baholanadi. Shunday qilib, (8) hosilali kvadratur formulaning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazo elementlari bo‘yicha xatoligini baholash $L_2^{(m)*}(0,1)$ qo‘shma fazodagi $\ell_N(x)$ xatolik funksionali normasi bilan bog‘liq bo‘ladi. $\ell_N(x)$ xatolik funksionali normasi (8) kvadratur formulaning koeffitsiyentlari va tugun nuqtalariga bog‘liq bo‘ladi. Optimal kvadratur formulalarni qurishning bir nechta usullari mavjud: splayn usuli, $\varphi-$ funksiyalar usuli va chiziqli differensial operatorning diskret analogiga asoslangan Sobolev usuli. Ushbu ishda $L_2^{(m)}(0,1)$ fazoda d^{2m}/dx^{2m} differensial operatorning diskret analogiga asoslangan Sobolev usuldan foydalanib hosilali optimal kvadratur formulalar qurilgan. $\ell_N(x)$ xatolik funksionali $L_2^{(m)*}(0,1)$ fazoda aniqlanganligi uchun u quyidagi shartlarni qanoatlantiradi

$$(\ell_N,x^{\alpha})=0,\quad \alpha=0,1,2,...,m-1. \tag{10}$$

Yuqorida Koshi-Shvarts tengsizligi bilan ta’kidlanganidek, (8) kvadratur formulaning xatoligi (9) xatolik funksionalining normasi bilan baholanadi. Bundan tashqari, xatolik funksionalining normasi tugun nuqtalar va $C_1[\beta]$, $\beta=\overline{0,N}$ koeffitsiyentlarga bog‘liq bo‘lib, biz xatolik funksionali normasini tugun nuqtalar fiksirlanganda faqat $C_1[\beta]$, $\beta=\overline{0,N}$ koeffitsiyentlar orqali minimumini topamiz

$$\left\|\overset{\circ}{\ell}_N\left|L_2^{(m)*}(0,1)\right.\right\|:=\inf_{\overset{\circ}{C}_1[\beta]}\left\|\ell_N\left|L_2^{(m)*}(0,1)\right.\right\|. \tag{11}$$

Shunday qilib, (8) ko‘rinishidagi hosilali optimal kvadratur formula qurish uchun biz quyidagi masalalarni yechishimiz kerak.

1-masala. $L_2^{(m)*}(0,1)$ fazoda (8) ko‘rinishdagi hosilali kvadratur formulaning (4) xatolik funksionali normasining umumiy ko‘rinishini aniqlash.

2-masala. (11) munosabatni qanoatlantiruvchi $\overset{\circ}{C}_1[\beta]$ koeffitsiyentlarni topish.

3-masala. (8)-optimal kvadratur formulaning $\overset{\circ}{\ell}_N$ xatolik funksionali normasini hisoblash.

Matematik-fizika masalalari asosan differensial tenglamalarni sonli yechish yoki aniq integrallarni taqribiy hisoblashga keltiriladi. Agar masalada berilgan funksiyaning tugun nuqtalardagi birinchi hamda ikkinchi tartibli hosilalarining qiymatlari berilgan bo‘lsa (8) ko‘rinishdagi hosilali optimal kvadratur formulalardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida 1-masalani yechish bilan shug‘ullanamiz. Bunig uchun ℓ_N xatolik funksionalining ekstremal funksiyasidan foydalanamiz.

Koshi-Shvarts tengsizligini tenglikka aylantiruvchi, ya’ni quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi ℓ_N xatolik funksionaliga mos ψ_ℓ funksiyaga *ekstremal funksiya* deyiladi

$$(\ell_N, \psi_\ell) = \| \ell_N \|_{L_2^{(m)*}} \cdot \| \psi_\ell \|_{L_2^{(m)}} .$$

Ekstremal funksiya uchun quyidagi tasdiq o‘rinli.

Chiziqli uzluksiz funksionalning umumiy ko‘rinishi haqidagi Riss teoremasidan foydalanib, quyidagi differensial tenglamani olamiz

$$\psi_\ell^{(2m)}(x) = \left(-1\right)^m \ell_N(x) \tag{12}$$

Teorema 1. (12)-tenglamaning umumlashgan yechimi ℓ_N xatolik funksionaliga mos ψ_ℓ ekstremal funksiya bo‘lib, u quyidagicha ifodalanadi

$$\psi_\ell(x) = \left(-1\right)^m \ell_N(x) * G_m(x) + P_{m-1}(x)$$

bu yerda $G_m(x) = \dfrac{|x|^{2m-1}}{2(2m-1)!}$, $P_{m-1}(x)$ - $m-1$ chi darajali ko‘phad.

Ekstremal funksiya va Riss teoremasidan foydalanib, (8) hosilali kvadratur formulaning xatolik funksionali normasining analitik ko‘rinishi topilgan.

Teorema 2. Ushbu $L_2^{(m)*}(0,1)$ qo‘shma fazoda $m \geq 3$ uchun ℓ_N xatolik funksionali normasi kvadratining analitik ko‘rinishi quyidagicha aniqlanadi

$$\begin{aligned}
\left\| \ell_N \middle| L_2^{(m)*} \right\|^2 = (-1)^m \Bigg[& \sum_{\beta=0}^{N} C_1[\beta] \sum_{\gamma=0}^{N} C_1[\gamma] \frac{|h\beta - h\gamma|^{2m-5}}{2(2m-5)!} - 2\sum_{\beta=0}^{N} C_1[\beta] \int_0^1 \frac{|x-h\beta|^{2m-3}}{2(2m-3)!} dx - \\
& - \frac{h^2}{6} \sum_{\beta=0}^{N} C_1[\beta] \left[\frac{h\beta^{2m-4} + (1-h\beta)^{2m-4}}{2(2m-4)!} \right] + 2\sum_{\beta=0}^{N} C_0[\beta] \sum_{\gamma=0}^{N} C_1[\gamma] \frac{|h\beta - h\gamma|^{2m-3}}{2(2m-3)!} - \\
& - \frac{h^2}{6} \sum_{\beta=0}^{N} C_0[\beta] \left[\frac{h\beta^{2m-2} + \left(1-h\beta\right)^{2m-2}}{2(2m-2)!} \right] - 2\sum_{\beta=0}^{N} C_0[\beta] \int_0^1 \frac{|x-h\beta|^{2m-1}}{2(2m-1)!} dx + \\
& + \sum_{\beta=0}^{N} C_0[\beta] \sum_{\gamma=0}^{N} C_0[\gamma] \frac{|h\beta - h\gamma|^{2m-1}}{2(2m-1)!} + \frac{h^2}{6(2m-1)!} + \frac{1}{(2m+1)!} + \frac{h^4}{144(2m-3)!} \Bigg].
\end{aligned} \tag{13}$$

Shunday qilib, 1 - masala yechildi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida ℓ_N xatolik funksionalining normasiga minimum qiymat beruvchi, (8)-kvadratur formulaning $\overset{\circ}{C}_1[\beta]$ optimal koeffisiyentlarini topish uchun quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini olamiz.

$$\sum_{\gamma=0}^{N} C_1[\gamma]\frac{|h\beta-h\gamma|^{2m-5}}{2(2m-5)!}+P_{m-3}(h\beta)=f_m(h\beta),\qquad \beta=\overline{0,N},\tag{14}$$

$$\sum_{\beta=0}^{N} C_1[\beta](h\beta)^{\alpha}=-\sum_{j=1}^{\alpha}\frac{\alpha!B_{\alpha+3-j}h^{\alpha+3-j}}{j!(\alpha+3-j)!},\qquad \alpha=\overline{0,m-3}.\tag{15}$$

bu yerda

$$f_m(h\beta)=\sum_{i=0}^{2m-5}\frac{(h\beta)^{2m-5-i}}{(2m-5-i)!}\left[-\frac{B_{i+3}h^{i+3}}{(i+3)!}+\sum_{j=1}^{i}\frac{(-1)^i B_{i+3-j}h^{i+3-j}}{2j!(i+3-j)!}\right]+\frac{B_{2m-2}h^{2m-2}}{(2m-2)!}$$

Ta'kidlash kerakki, (14)-(15) tenglamalar sistemasi diskret Vinner-Xopf tipidagi tenglamalar sistemasi bo‘lib, bu turdagi sistemalarning yechimi mavjud va yagonaligi va bu yechim $\|\ell_N\|$ normaga mininimum berishi S.L. Sobolev va X.M. Shadimetovlar tomonidan isbotlangan.

Ikkinchi bobning to‘rtinchi paragrafida (8) ko‘rinishdagi hosilali optimal kvadratur formulaning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazoda $m=3$ uchun koeffitsiyentlarini topamiz.

Teorema 3. $L_2^{(3)}(0,1)$ fazoda (8)-ko‘rinishidagi hosilali optimal kvadratur formulaning koeffisiyentlari quyidagicha bo‘ladi

$$C_1[\beta]=0,\quad \beta=\overline{0,N}.\tag{16}$$

Sobolevning $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida qurilgan (8) ko‘rinishdagi hosilali optimal kvadratur formuladan Eyler-Makloren formulasi kelib chiqishini xulosa qilish mumkin.

Ushbu bobning beshinchi paragrafida $L_2^{(m)}(0,1)$ fazoda $m\geq 4$ bo‘lganda hosilali optimal kvadratur formula koeffitsiyentlarining analitik ko‘rinishi topilgan.

Buning uchun quyidagi teorema o‘rinli.

Teorema 4. Haqiqiy qiymatli funksiyalarning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida (8) ko‘rinishidagi hosilali kvadratur formulalar orasida, koeffisiyentlari quyidagi ko‘rinishda bo‘lgan yagona optimal kvadratur formula mavjud

$$C_1[\beta]=h^3\sum_{k=1}^{m-3}a_k\frac{q_k^N-q_k}{1-q_k},\qquad \beta=0,N,$$

$$C_1[\beta]=h^3\sum_{k=1}^{m-3}a_k\left(q_k^{\beta}+q_k^{N-\beta}\right),\qquad \beta=\overline{1,N-1},$$

a_k quyidagi tenglamalar sistemasining yechimi

$$\sum_{k=1}^{m-3}a_k\sum_{i=0}^{\alpha}\frac{(q_k^{N+i}+(-1)^{i+1}q_k)}{(1-q_k)^{i+1}}\Delta^i 0^{\alpha}=\frac{B_{\alpha+3}}{(\alpha+1)(\alpha+2)(\alpha+3)},\qquad \alpha=\overline{1,m-3}.$$

bu yerda B_α Bernulli sonlari, q_k Euler-Frobenius $(2m-6)$- darajali ko‘phadining ildizi, $|q_k|<1$.

Teorema 4 dan quyidagi natija kelib chiqadi:

Natija 1. Sobolevning $L_2^{(4)}(0,1)$ fazosida (8) ko‘rinishdagi hosilali optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari quyidagicha bo‘ladi

$$C_1[\beta] = ah^3 \frac{(q - q^N)}{q-1}, \qquad \beta = 0, N,$$

$$C_1[\beta] = ah^3 \left(q^\beta + q^{N-\beta}\right), \qquad \beta = \overline{1, N-1},$$

bu yerda $a = \dfrac{1}{120(1+q^N)}$, $q = \sqrt{3} - 2$.

Teorema 5. Vinner-Xopf tipidagi (14)-(15) diskret tenglamalar sistemasidagi noma’lum bo‘lgan ko‘phad quyidagi ko‘rinishda aniqlanadi

$$P_{m-3}(h\beta) = \sum_{i=m-2}^{2m-5} \frac{(h\beta)^{2m-5-i}}{(2m-5-i)!} \left[\frac{h^{i+3}}{i!} \sum_{k=1}^{m-3} \sum_{\alpha=1}^{i} \frac{a_k q_k + b_k q_k^{N+\alpha}(-1)^{\alpha+1}}{(q_k - 1)^{\alpha+1}} \Delta^\alpha 0^i + \right.$$

$$\left. + \frac{(-1)^i}{2i!} \sum_{\gamma=0}^{N} C_1[\gamma](h\gamma)^i - \frac{B_{i+3} h^{i+3}}{(i+3)!} + \sum_{j=1}^{i} \frac{(-1)^i B_{i+3-j}}{2\,j!(i+3-j)!} \right] + \frac{B_{2m-2} h^{2m-2}}{(2m-2)!}.$$

Biz keyinchalik bu ko‘phadning ko‘rinishidan xatolik funksionali normasini hisoblashda foydalanamiz.

Shunday qilib, 2-masala to‘liq yechildi.

Dissertatsiyaning **“$L_2^{(m)}(0,1)$ fazoda hosilali optimal kvadratur formulalar yaqinlashish tartibini baholash”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida (8) ko‘rinishdagi hosilali optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasini hisoblash bilan shug‘ullanamiz.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida $L_2^{(3)}(0,1)$ fazoda (8) hosilali optimal kvadratur formulaning yaqinlashish tartibi o‘rganilgan.

Teorema 6. $L_2^{(3)}(0,1)$ fazoda (8) ko‘rinishdagi hosilali kvadratur formulaga mos ℓ_N xatolik funsionali normasining kvadrati quyidagiga teng

$$\left\| \ell_N \middle| L_2^{(3)*}(0,1) \right\|^2 = \frac{h^6}{30240}.$$

Teorema 6 dan $L_2^{(3)}(0,1)$ fazoda qurilgan hosilali kvadratur formulaning xatoligi Eyler-Makloren formulasining xatoligiga teng ekanligini ko‘rish mumkin.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida $m \geq 4$ bo‘lgan xolda algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan hosilali optimal kvadratur formulalar xatoligining yuqori bahosi hisoblangan.

Uchinchi bobning asosiy natijasini isbotlash uchun quydagi tasdiqlar o‘rinli.

Tasdiq 1. Kvadratur formulaning qadami h va Bernulli sonlari uchun quyidagi tenglik o‘rinli

$$\sum_{i=0}^{m-3} \frac{(-1)^{2m-5-i}}{(2m-5-i)!} \sum_{j=1}^{i} \frac{B_{i+3-j} h^{i+3-j}}{j!(i+3-j)!} \left[h^{2m-2-i} Z_{2m-5-i} + \sum_{p=1}^{2m-6-i} \frac{(2m-5-i)! h^{p+3} Z_p}{p!(2m-5-i-p)!} \right] =$$

$$= -\sum_{i=1}^{m-3} h^{i+6} \sum_{p=1}^{i} \sum_{j=p}^{m-3} \frac{(-1)^j B_{p+2} Z_{i+1-p}}{(j+1-p)!(p+2)!(i+1-p)!(2m-6-j-i+p)!} -$$

$$-\sum_{i=1}^{m-3} h^{i+m+3}\left[\sum_{p=i}^{m-3}\sum_{j=p}^{m-3}\frac{(-1)^{m-p}B_{m-j}Z_{i+j}}{(j+1-p)!(m-j)!(i+j)!(m-3-j-i+p)!}+\right.$$

$$\left.+\sum_{p=1}^{i-1}\sum_{j=p}^{m-3-i+p}\frac{(-1)^{m-p}B_{m-j}Z_{j+i}}{(j+1-p)!(m-j)!(j+i)!(m-3-j-i+p)!}\right]$$

bu yerda $Z_p=\sum_{k=1}^{m-3}\sum_{t=0}^{p}\frac{a_k q_k^{N+t}+b_k q_k(-1)^{t+1}}{(1-q_k)^{t+1}}\Delta^t 0^p,\quad p=\overline{0,2m-5}.$

Tasdiq 2. Bernulli sonlari uchun quyidagi tengliklar o‘rinli

$$\sum_{j=0}^{m-3}\sum_{p=1}^{j}\frac{B_{j+3-p}h^{j+3-p}}{p!(j+3-p)!}\sum_{i=1}^{2m-5-j}\frac{(-1)^{2m-5-j}B_{2m-2-j-i}h^{2m-2-j-i}}{2i!(2m-2-j-i)!}=$$

$$=\frac{1}{2}\left\{\sum_{p=m+3}^{2m-1}h^p\sum_{j=1}^{2m-p}\sum_{i=1}^{m-2-j}\frac{(-1)^{i+j}B_{i+2}B_{p-2-i}}{j!(i+2)!(p-2-i)!(2m+1-p-j)!}+\right.$$

$$+\sum_{p=6}^{m+2}h^p\left[\sum_{j=1}^{m+2-p}\sum_{i=1}^{p-5}\frac{(-1)^{i+j}B_{i+2}B_{p-2-i}}{j!(i+2)!(p-2-i)!(2m+1-p-j)!}+\right.$$

$$\left.\left.+\sum_{j=1}^{p-5}\sum_{i=1}^{p-4-j}\frac{(-1)^{i+j+m-p+2}B_{i+2}B_{p-2-i}}{(j+m+2-p)!(i+2)!(p-2-i)!(m-j-1)!}\right]\right\}$$

Teorema 7. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazoda $m\geq 4$ uchun (8) ko‘rinishdagi hosilali optimal kvavdratur formulaga mos (9) xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagiga teng

$$\left\|\ell_N\left|L_2^{(m)*}(0,1)\right\|^2=(-1)^{m+1}\left[\frac{h^{2m}B_{2m}}{(2m)!}+h^{2m+1}\sum_{i=0}^{m-3}\sum_{k=1}^{m-3}\sum_{t=0}^{2m-5-i}\frac{B_{i+3}\theta_t(q_k)\Delta^t 0^{2m-5-i}}{(2m-5-i)!(i+3)!}\right],\right.$$

bu yerda

$$\theta_t(q_k)=\frac{a_k(q_k^N-1)(q_k^t+(-1)^t q_k)}{(1-q_k)^{t+1}},$$

B_l - Bernulli sonlari, a_k - Teorema 4 da berilgan, q_k $2m-6$ darajali $E_{2m-6}(q)$ Eyler ko‘phadining ildizi, $|q_k|<1$.

Teorema 7 dan quyidagi natija kelib chiqadi.

Natija 2. $L_2^{(4)}(0,1)$ fazoda (8) ko‘rinishdagi hosilali optimal kvavdratur formulaga mos (9) xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagiga teng

$$\left\|\ell_N\left|L_2^{(4)*}(0,1)\right\|^2=\frac{h^8}{1209600}+\frac{h^9(2+q)(1-q^N)}{1555200(1+q^N)}\right.$$

bu yerda $q=\sqrt{3}-2$.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida olingan analitik natijalarni ba’zi murakkab funksiyalar yordamida sonli tahlil qilingan. Shu bilan birga, hosilali optimal kvadratur formula yordamida Fredgolmning ikkinchi tur integral tenglamasini sonli yechish qaralgan. Integral tenglamalarni hosilali optimal kvadratur formulalar yordamida yechishdagi xatolik Simpson formulasining xatoligidan kichik ekanligi ko’rsatilgan.

XULOSA

Dissertatsiya ishida haqiqiy qiymatli, differensiallanuvchi funksiyalarning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida funksiyaning tugun nuqtalardagi birinchi hamda ikkinchi tartibli hosilalarining qiymatlaridan foydalanib, $m-1$ chi darajali algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan hosilali optimal kvadratur formulalar qurilgan.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida algebraik ko‘phadlarga aniq bo‘lgan hosilali kvadratur formulalar xatolik funksionali normasining ko‘rinishini topilgan.
2. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida hosilali optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari uchun Vinner-Xopf tipidagi tenglamalar sistemasini olingan.
3. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida $m=3$ bo‘lganda hosilali optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari topilgan.
4. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida $m\geq 4$ uchun hosilali optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlarining analitik ko‘rinishi olingan.
5. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida $m=3$ bo‘lganda hosilali optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasi hisoblangan.
6. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida $m\geq 4$ uchun hosilali optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasi hisoblangan.
7. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida qurilgan hosilali optimal kvadratur formulalar yordamida integral tenglamalar sonli yechilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

КУЗИЕВ ШАХОБИДДИН СОБИРОВИЧ

ПРОИЗВОДНЫЕ ОПТИМАЛЬНЫЕ КВАДРАТУРНЫЕ ФОРМУЛЫ В ПРОСТРАНСТВЕ СОБОЛЕВА

01.01.03 – Вычислительная и дискретная математика

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.1.PhD/FM1014.

Диссертация выполнена в институте математики имени В.И.Романовского АНРУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz/) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:	**Нуралиев Фарход Абдуганиевич** доктор физико-математических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Худойберганов Мирзоали Уразалиевич** доктор физико-математических наук, профессор
	Утеулиев Ниетбай Утеулиевич доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» ________ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №_____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «____» _______________2025 года.
(протокол рассылки №_________ от «____» ________________2025 года).

М.М. Арипов
Председатель Научного совета по присуждению научных степеней, д.ф.-м.н., профессор

З.Р. Рахмонов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению научных степеней, д.ф.-м.н.

Р.Д. Алоев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению научных степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В результате многочисленных научно-практических исследований, проводимых в мировом масштабе, численное решение дифференциальных и интегральных уравнений в задачах физики солнца, моделирования синтезированных голограмм, механики жидкостей и газов с высокой точностью приводит к построению оптимальных квадратурных формул с производными. Обычно при решении таких задач использование простых интерполяционных квадратурных формул требует большого объема вычислительной работы. Поэтому одной из важнейших задач вычислительной математики считается разработка способов создания оптимальных алгоритмов численного решения, позволяющих с достаточной точностью вычислять решения типичных задач математики и использовать для этой цели современные вычислительные средства, а также построение оптимальных квадратурных формул с производными в определенных Гильбертовых и банаховых пространствах и оценка их погрешностей.

В настоящее время в мире методы построения производных оптимальных квадратурных и кубатурных формул с точностью до производной второго порядка в узлах и оценки их погрешностей широко исследуются. При нахождении численно-аналитических решений дифференциальных и интегральных уравнений образующихся при математическом моделировании природных процессов, при приближенном решении интегралов связанных с механическими или физическими процессами, выраженными с помощью первых и вторых производных функции в узлах, при расчете оптимальных поверхностей в области гидроэнергетики широко используются оптимальные квадратурные формулы. В связи с этим целенаправленными научными исследованиями являются построение производных оптимальных квадратурных формул в пространствах Гильберта и Банаха дифференцируемых функций и создание комплекса программ с удобным интерфейсом, предназначенным для широкого круга пользователей.

В частности, большое внимание уделялось теории численного интегрирования вычислительной математики, с использованием значений функций в пространствах Соболева до второй производной в узлах, были достигнуты значительные результаты по построению производных оптимальных квадратурных формул. и их оценка погрешности. Проведение научных исследований мирового уровня по таким приоритетным направлениям «функциональный анализ, дифференциальные уравнения, математическая физика, математическое моделирование, вычислительная математика и дискретная математика, теория вероятностей и математическая статистика» [2] является одной из основных задач фундаментальных исследований деятельности многих исследовательских институтов и вузов

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП–4708 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики» от 07 мая 2020 года.

республики. Важно совершенствовать методы построения производных квадратурных формул и оценки их погрешностей для обеспечения реализации решения.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан УП –№ 4947 от 07 февраля 2017 года “О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, УП-№60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, в постановлениях ПП – № 2789 от 17 февраля 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности”, ПП – № 2909 от 20 апреля 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, ПП –№ 3682 от 27 апреля 2018 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов”, ПП – № 4708 от 07 мая 2020 года “О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики”, а также в других нормативно–правовых актах, относящихся к данной области деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV. “Математика, механика и информатика”.

